



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODELİ YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li	
SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna	
Xolov Javlonbek Davronovich	
UZBEKISTAN KAK AKADEMIЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна	
БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIIYAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich	
Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li	
OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich	
“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIIY-AMALIIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov	
QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi	
STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE	189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN‘IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI	195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich	
KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI	207
Tojiyev Sa‘dulla Muhitdinovich	
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE “TECHNOPARK” ENTERPRISE	213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi	



THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY	218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	
TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH	224
U.U.Nurullayev	
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	230
Asqarov Akmal Anvar o'g'li	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHNING TASHKILIYIQTISODIY MEKANIZMINING ASOSIY FUNKSIYA VA PRINSIPLARI	246
Xayrullayev Elbek Xayrulla o'g'li	
ЛИЗИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ФИНАНСОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ.....	250
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH	261
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI	267
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich	
FINANCIAL MODELS IN THE EDUCATION SECTOR: A COMPARATIVE INSTITUTIONAL ANALYSIS OF STATE, PRIVATE, AND MIXED FUNDING SYSTEMS	275
Imomov Inomiddin	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI.....	281
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich	
NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA MAZMUNI.....	292
Djumonov Dilshod Safarolievich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	302
Shodmonov Nurjaxon Shokir o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB QUVVATLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	308
Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich	
O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK BOZORI XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	314
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	321
Baxadir Adilchayev	



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

Baxadir Adilchayev

I.f.f.d., dotsent vazifasini bajaruvchi

Qoraqalpoq davlat universiteti

ORCID: 0009-0003-1306-4257

E-mail: badilchaev-91@mail.ru

Annotatsiya. Qoraqalpog'iston Respublikasining turistik salohiyati SWOT-tahlil asosida kompleks baholanib, hududda ekoturizm, agroturizm, ziyorat va ov turizmini rivojlantirish imkoniyatlari hamda istiqbolli ekoturistik yo'nalishlar tahlil qilingan. Turizm sohasining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi zaif jihatlar, jumladan, ommaviy axborot vositalarida targ'ibot va reklama ishlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani, shuningdek, ekologik va geosiyosiy xavf-xatarlar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. A-380 xalqaro avtomobil yo'li va hududning tranzit-logistika imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida xizmatlar sohasini kengaytirish, turistik infratuzilmani rivojlantirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish istiqbollari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Qoraqalpog'iston Respublikasi, turistik salohiyat, SWOT-tahlil, ekoturizm, agroturizm, ziyorat turizmi, ov turizmi, transport-logistika, reklama va marketing, Amudaryo ekotizimi, Orolbo'yi, yangi ish o'rinlari.

Аннотация. Туристический потенциал Республики Каракалпакстан комплексно оценён на основе SWOT-анализа, проанализированы возможности развития экологического, аграрного, паломнического и охотничьего туризма, а также перспективные направления экотуризма. Выявлены слабые стороны, сдерживающие развитие туристической отрасли, включая недостаточный уровень информационно-рекламного продвижения в средствах массовой информации, а также экологические и геополитические риски. Разработаны научно-практические предложения по их минимизации и устранению. Обоснованы перспективы расширения сферы услуг, развития туристической инфраструктуры и создания новых рабочих мест за счёт эффективного использования международной автомобильной дороги А-380 и транзитно-логистического потенциала региона.

Ключевые слова: Республика Каракалпакстан, туристический потенциал, SWOT-анализ, экотуризм, агротуризм, паломнический туризм, охотничий туризм, транспорт и логистика, реклама и маркетинг, экосистема Амударьи, Приаралье, новые рабочие места.

Abstract. The tourism potential of the Republic of Karakalpakstan is comprehensively assessed using SWOT analysis, with particular attention to opportunities for developing ecotourism, agritourism, pilgrimage tourism, and hunting tourism, as well as promising ecotourism routes. Key weaknesses constraining the development of the tourism sector are identified, including insufficient media promotion and advertising, along with environmental and geopolitical risks. Scientific and practical recommendations are proposed to mitigate and address these challenges. The prospects for expanding the service sector, developing tourism infrastructure, and creating new jobs through the effective use of the A-380 international highway and the region's transit and logistics potential are substantiated.

Keywords: Republic of Karakalpakstan, tourism potential, SWOT analysis, ecotourism, agritourism, pilgrimage tourism, hunting tourism, transport and logistics, advertising and marketing, Amu Darya ecosystem, Aral Sea region, job creation.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lgan turizm industriyasi nafaqat milliy daromadni oshirish, balki hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish va aholi bandligini ta'minlashning samarali drayveriga aylandi. O'zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va hududlararo tengsizlikni kamaytirish maqsadida turizm sohasini diversifikatsiya qilish, ayniqsa, ekologik va agroturizm (qishloq turizmi) salohiyatidan unumli foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan



biri etib belgilangan [1]. Ushbu kontekstda o'ziga xos geografik joylashuvi, boy o'tmishi va betakror madaniy merosiga ega bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasining turistik imkoniyatlarini tizimli rivojlantirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Qoraqalpog'iston mintaqasi nafaqat o'zining qadimiy qal'alari va muzeylari, balki ekologik hamda agroturistik resurslari bilan ham ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida hududda turizm xizmatlari eksportini sezilarli darajada oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan. Shu bilan birga, Amudaryoning quyi havzasidagi ekologik o'zgarishlar, infratuzilmani yanada rivojlantirish zarurati hamda milliy va xalqaro miqyosda reklama-marketing ishlarini faollashtirish mintaqaning mavjud salohiyatidan yanada samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsad va vazifasi Qoraqalpog'iston Respublikasida agroturizm va ekoturizmni rivojlantirishning bugungi holatini SWOT-tahlil asosida kompleks o'rganish, sohadagi mavjud rivojlantirilishi lozim bo'lgan jihatlar va ehtimoliy xavf-xatarlarni aniqlash hamda ularni samarali boshqarish bo'yicha strategik yo'nalishlar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu masalalarni tizimli hal etish transport-logistika imkoniyatlarini (xususan, A-380 xalqaro avtomobil yo'li) kengaytirish, yangi turistik marshrutlarni joriy qilish va raqamli marketing mexanizmlaridan faol foydalanishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qoraqalpog'istonda agroturizmni rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ekologik o'zgarishlar ta'sirini yumshatish va madaniy merosni targ'ib qilishning strategik yo'nalishi sifatida tadqiq etilmoqda [1, 2, 3, 5]. Ilmiy adabiyotlar tahlili huquqiy asoslarning mustahkamligi bilan bir qatorda, infratuzilmani yanada takomillashtirish va agroturizmning umumiy turizm tarkibidagi ulushini oshirish orqali ushbu sohani tizimli rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi [4, 6, 7, 8]. Qoraqalpog'istonda agroturizmni rivojlantirish hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va Orolbo'yidagi ekologik o'zgarishlar ta'sirini yumshatishning strategik yo'nalishi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasida agroturizm va ekoturizm sohalarining rivojlanish tendensiyalarini tizimli va qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan uslublar majmuasi tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida empirik ma'lumotlarni to'plash, guruhlash, statistik tahlil hamda strategik rejalashtirish usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ishonchliligi va obyektivligini ta'minlash maqsadida quyidagi uslubiy yondashuvlar amalga oshirildi:

SWOT-tahlil (kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va xavf-xatarlar tahlili): mintaq turizm sohasining ichki salohiyati (kuchli va rivojlantirilishi lozim bo'lgan jihatlari) hamda tashqi muhit omillari (imkoniyatlar va ehtimoliy xavf-xatarlar) baholandi. Bu orqali agroturizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish yo'llari aniqlandi. Tizimli va qiyosiy tahlil (Systemic and Comparative Analysis): Qoraqalpog'iston Respublikasining transport-logistika va geografik ustunliklari respublikaning boshqa viloyatlari (Samarqand, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy va Namangan) bilan qiyosiy ravishda o'rganildi. Statistik va dinamik tahlil: 2017–2023-yillar oralig'ida Orolbo'yi mintaqasida amalga oshirilgan turistik oqimlar, avtorallilar va OAVda yoritilish dinamikasi tahlil qilindi. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-sonli¹ Farmoni va sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarning amaliy ta'siri o'rganildi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm boshqarmasi ma'lumotlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari hamda davriy nashr materiallaridan birlamchi va ikkilamchi manbalar sifatida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Agroturizm, qishloq turizmi kabi turizm turlari yildan yilga ommalashib bormoqda. Ta'lim olish va an'anaviy dehqonchilik faoliyatiga qiziqish, qishloq xo'jaligi hududlariga tashrif buyurish amaliyotini anglatadi. Bu qishloq turizmining kichik toifasi bo'lib, shahar va qishloq turmush tarzi o'rtasidagi tafovutni

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-sonli Farmoni: <https://www.lex.uz/docs/-3548467>



kamaytirish, shuningdek, barqaror qishloq xo'jaligi va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi [2]. Agroturizm faoliyati odatda fermer xo'jaliklariga sayohatlar, fermerlarning kundalik faoliyati bilan tanishish, qishloq xo'jaligi hududlarida tashkil etilgan festivallar va ta'lim turlarini o'z ichiga oladi. Jahon agroturizm bozorida bir qator rivojlanish tendensiyalari kuzatilmoqda. Birinchidan, tabiiy va tajribaga asoslangan sayohatlarga talab ortib bormoqda, sayohatchilar qishloq xo'jaligi faoliyatini chuqur o'rganishni xohlashadi. Ikkinchidan, barqaror va ekologik toza turizmga qiziqish ortib bormoqda, bunda tashrif buyuruvchilar atrof-muhitni muhofaza qilish va organik dehqonchilik amaliyotini targ'ib qiluvchi agroturizm yo'nalishlarini afzal ko'rishadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning shimoli-g'arbida, Amudaryoning quyi oqimi va Orol dengizining janubiy qismida joylashgan. Respublika Qoraqum va Qizilqum sahrolariga tutashib ketgan bo'lib, umumiy yer maydoni 166,6 ming kvadrat kilometrdan iborat [3]. U hududining kattaligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi mintaqalari o'rtasida birinchi o'rinda turadi. Mintaqa yer maydonlarining 80 foizdan ortig'ini qum barxanlaridan iborat cho'l hududlari tashkil qiladi. Orol dengizining qurib borishi natijasida mintaqada o'ziga xos ekologik sharoit shakllangan. Respublikaning ma'muriy-hududiy tuzilmasi 16 ta tuman va 1 ta shahardan iborat. Mintaqa Qozog'iston (990 km) va Turkmaniston (784,1 km) davlatlari, Xorazm (263,2 km), Navoiy (300 km) va Buxoro (66 km) viloyatlari bilan chegaradoshdir [4]. Uning hududidan xalqaro ahamiyatga ega magistral temir yo'llar va avtomobil yo'llarining o'tganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm va mehmonxona xizmatlarini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Hozirgi vaqtda respublikada 48 ta me'morchilik va arxitektura yodgorligi, 42 ta monumental va san'at yodgorligi, 3 ta diqqatga sazovor joy (Sulton Uvays memorial majmuasi, Savitskiy nomidagi san'at muzeyi, Mizdaxan arxeologik majmuasi) va 255 ta arxeologik obida mavjud [5]. Bundan tashqari, Nukus shahrida 545 o'rinli 15 ta mehmonxona faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, tumanlarda 12 ta mehmonxona va «yurta» (qora uylar) ishlab turibdi. Ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi vaqtda mintaqaning Qanliko'l, Chimboy va Kegeyli tumanlarida mehmonxona xizmatlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Ellikqal'a tumanidagi Tuproq qal'a (er. avv. I–IV asrlar), Ayoq qal'a (er. avv. III–IV asrlar), Qirg'iz qal'a (er. avv. III–IV asrlar), Burgut qal'a (VI–VIII asrlar), Amudaryo tumanidagi Chilpiq (I–IV asrlar), Xo'jayli tumanidagi Mizdaxan majmuasi (III–IV asrlar) katta tarixiy-madaniy va ma'naviy ahamiyatga ega. Shunday bo'y salohiyatning mavjudligi respublikada turizm va mehmonxona xizmatlarini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Keltirilgan turistik resurslarning deyarli barchasi qishloq aholi punktlarida joylashganligi mintaqada agroturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Turizm va mehmonxona xizmatlarining jami xizmatlardagi ulushi 0,1 foizni tashkil etmoqda. Turizm xizmatlari Nukus shahri, Beruniy va Ellikqal'a tumanlarida yo'lga qo'yilgan. Mintaqaning qolgan tumanlarida, ayniqsa, Ellikqal'a, Qo'ng'iro't, To'rtko'l, Xo'jayli va Amudaryo tumanlarida turizmni rivojlantirish uchun juda katta salohiyat mavjud bo'lib, undan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Qoraqalpog'iston Respublikasining turistik salohiyatini targ'ib qilish borasida chet el tajribasini kengroq o'rganish, reklama va marketing ishlarini yangicha tashkil qilish, har bir tarixiy obidaga tegishli o'ziga xos afsonalarni yozib olish, elektron, xorijiy va milliy OAV hamda davriy nashrlarda tarqatish lozim. Mintaqada agroturizmni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan SWOT-tahlil natijalariga ko'ra, respublikada turizmni rivojlantirish imkoniyatlari juda katta bo'lib, bular qatoriga Quyi Amudaryo biorezervatida, turistik va rekreatsiya salohiyati yuqori bo'lgan Nukus shahrida, Ellikqal'a, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq, To'rtko'l, Xo'jayli va Amudaryo tumanlarida turizm va mehmonxona xo'jaligi xizmatlarini, ov turizmi, ziyorat, sport va sog'lomlashtirish turizmi hamda arxeoturizmni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini aytish mumkin.

Mintaqada turistik tashkilotlar sonini ko'paytirish, soha xodimlarining zamonaviy kasbiy-ekologik va turistik ta'lim hamda malaka darajasini yanada oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Keyingi vaqtlarda sohada faoliyat yurituvchi xodimlarni Turizm sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish respublika markazida o'qitish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, sohani yetuk mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida mintaqada joylashgan OTMlarda turizm bakalavriat ta'lim yo'nalishini ochish (tashkil etish) maqsadga muvofiq. Turistik obyektlarda yo'l va yo'lbo'yi infratuzilmasini yanada rivojlantirish, turistik resurslar va obyektlar atrofida zarur maishiy infratuzilmani shakllantirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar asosida 2017-yilda avtomobillarga gaz va yoqilg'i quyish shoxobchalari, ular atrofida kafe, oshxona va tamaddixonalar, yo'l bo'ylarida zamonaviy hojatxonalar qurish hamda ularning holatini standartlarga moslashtirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Turizmning rivojlanishida OAV va reklamaning roli beqiyos hisoblanadi. Tahlillarimizda zaif tomon sifatida umumiy ma'noda mintaqada turizm, xususan, ekoturizm bo'yicha reklama-axborot materiallarining xalqaro va milliy elektron hamda an'anaviy OAVlarda yetarli darajada yoritilmasligi qayd etildi. Ammo 2017–2023-yillarning bahor va yoz oylarida OAV xodimlari, turistik byuro va firmalar xodimlari hamda qiziquvchilar tomonidan «Orolga sayohat» yo'nalishi bo'yicha turlar, Toshkent–Mo'ynoq–Orol yo'nalishi



bo'ylab avtorallilar amalga oshirildi hamda ular OAV va internet saytlarida yoritib borildi. Bu sohada amaliy ishlarning boshlanishi bo'lib, istiqbolda reklama xizmatlarini yanada rivojlantirish zarur. Umuman olganda, ko'rsatilgan jihatlarni bartaraf etish yoki ularni kuchli tomonga aylantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Soha rivojidadagi ehtimoliy xavf-xatarlardan biri sifatida Amudaryoda suv miqdorining kamayishi hisobiga qirg'oq bo'ylarida joylashgan landshaft qo'riqxonalari va biorezervatlardagi flora hamda fauna holatiga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ta'sirlar qayd etildi. Bu masalaning yechimi sifatida Amudaryoning quyi qismida sohilbo'yi to'qayzorlar hajmini ko'paytirish va ularni daryo suvi bilan sug'orish maqsadida har 50 km masofada daryoga to'g'onlar qurish lozim. Bu orqali daryo suvini tejash, daryo sohillaridagi flora va fauna sharoitini yaxshilash mumkin.

Siyosiy xavf-xatarlardan biri sifatida qo'shni davlatlardagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatning mintaqaga xorijiy turistlar kirib kelishiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi qayd etildi. Ammo hukumat rahbari tashabbusi bilan Markaziy Osiyodagi barcha chegaradosh davlatlar bilan yaqin qo'shniçilik aloqalari o'rnatilib, chegaralarni delimitatsiya qilish ishlari amalga oshirildi hamda doimiy ravishda avtomobil, havo va temir yo'l qatnovlari yo'lga qo'yildi [6]. Mazkur yo'nalishda «Ustyurtga sayohat», «Sayg'oqlar sayli», «Sahrolar ichra o'tmish sadolari», «Orolga sayohat», «Qoraqalpog'istonga ekotur», «Tilaklar qudug'i», «Jip tur-safari», «Qoraqalpog'istonning qadimiy qal'alari», «Qumda suzayotgan kemalar», «Amudaryo ekoturizmi» kabi yangi ekoturistik yo'nalishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qoraqalpog'istonda turistik xizmatlarni yanada rivojlantirish uchun mintaq va mamlakat darajasidagi bir qator masalalarni hal qilish talab etiladi. Jumladan, hududdagi noyob madaniy-tarixiy meros obyektlari [7] va rekreatsiya resurslaridan yanada samarali foydalanish, shuningdek, chet ellik turoperatorlarning ushbu salohiyat to'g'risidagi xabardorligini oshirish maqsadida mahalliy hokimiyat organlari va tegishli tashkilotlar tomonidan mintaqaning turistik salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda internet sahifalariga faol joylashtirib borish, yangi turistik marshrutlar ishlab chiqish, turistlarga bukletlar va tarixiy obidalarning geografik joylashuvi bo'yicha xaritalarni tizimli hamda bepul ravishda tarqatish zarur. Tegishli tashkilotlar madaniy meros va arxitektura obyektlarini o'z vaqtida va muntazam ravishda ta'mirlash ishlarini yo'lga qo'yishi zarur. Shu bilan birga, hududni tarixiy obidalarga olib boradigan yo'llar va boshqa infratuzilma obyektlari bilan ta'minlash zarurati ham mavjud.

Mintaqaning transport salohiyati uning hududidan o'tgan xalqaro A-380 avtomobil yo'li, respublika va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan temir yo'l va avtomobil yo'llarining rivojlanganligi bilan belgilanadi. A-380 xalqaro avtomobil yo'li To'rtko'l, Beruniy, Nukus, Xo'jayli va Qo'ng'iro't tumanlaridan o'tadi hamda bu holat ushbu hududlarga transport xizmatlarini rivojlantirishda raqobat ustunligini baxsh etadi. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston hududidan 16 ta yo'nalish bo'yicha xorijiy avtotashuvchilarning tranzit harakati amalga oshirilmoqda [8].

Qoraqalpog'iston Respublikasining boshqa viloyatlardan (Samarqand, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy va Namangan) ustun tomonlaridan biri mintaq hududidan o'tadigan xorijiy avtotashuvchilarning tranzit harakatidir. Bundan tashqari, temir yo'lining Qozog'iston va Turkmaniston davlatlariga o'tishi chegaraoldi savdosini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Qozog'iston orqali Rossiyaga to'g'ridan to'g'ri o'tish imkoniyati faqat Toshkent viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida mavjudligini hisobga oladigan bo'lsak, bu transport-logistika xizmatlarini rivojlantirishda mintaq uchun muayyan qulayliklar yaratadi. Umuman olganda, Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish natijasida mavjud dasturlardan tashqari, qo'shimcha ravishda 4,4 mingga yaqin infratuzilma obyektlarini ishga tushirish va 18 mingdan ortiq yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Tadqiqotlar davomida o'tkazilgan tahlillardan kelib chiqqan holda, mintaq hududlarida agroturizmni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarni tavsiya qilamiz.

Qo'ng'iro't va Mo'ynoq tumanlarida agroturizmni rivojlantirish uchun tavsiya etilayotgan yo'nalishlarni ilmiy jihatdan asoslaydigan bo'lsak, Qo'ng'iro't tumani iqtisodiyoti Qoraqalpog'istondagi eng rivojlangan hududlardan biri bo'lib, tumanda yirik korxonalardan Qo'ng'iro't "Soda zavodi" va "UzKorGaz Chemical" qo'shma korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, Qo'ng'iro't tumanining Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalari bilan chegaradoshligi, betakror Ustyurt platosi chinklari (jarliklari), turli-tuman noyob baliqlar va qushlarni kuzatish (birdwatching) mumkin bo'lgan ko'llar, tarixiy qal'alarning (arxeoekoturizm), ovqatlanish, mehmonxona, savdo, maishiy xizmatlar va temir yo'llarning mavjudligi, tumandan zamonaviy xalqaro avtomagistral yo'lining o'tganligi (veloturizm), Ustyurt kengliklarida chorvadorlarning hayoti bilan tanishish, tuyalarda va otlarda yurish, avto-mototsikllarda rallilar uyushtirish (sport, ekstremal turizm) orqali platoning ajoyib manzaralaridan bahramand bo'lish, Orol dengiziga va Sudochoye ko'lga Qo'ng'iro't va Mo'ynoq tumanlari hududidan borilishi plyaj, ekstremal va ornitologik turizmni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Buni quyidagi jadvalda ko'rsatamiz.



Tumanlar	Rivojlantirish tavsiya qilinayotgan turizm turlari	Hududdagi turistik obyektlar
Qo'ng'iro't	Agroturizm, ekoturizm, otda va tuyada sayohat, veloturizm, sport turizmi, ornitologik turizm	Ustyurt platosi (chinklar), hududda joylashgan tarixiy qal'alar, Nukus-Qo'ng'iro't avtomobil yo'li, qishloqlar
Mo'ynoq	Agroturizm, ekoturizm, etnoturizm, ekstremal turizm, plyaj turizmi	Mo'ynoq tumani, Ko'ksuv, Shegeko'l, Sudoche ko'llari, Aqtumsiq tepaligi, qishloqlar
Qangliko'l	Agroturizm, ekoturizm, etnoturizm, ov turizmi, ekoturizm	Amudaryo sohillari, tuman hududidagi ko'llar, qishloqlar
Shumanay	Agroturizm, ekoturizm, tarixiy-madaniy turizm	Ustyurt platosi, hududdagi tarixiy qal'alar, qishloqlar
Nukus sh.	Ishbilarmonlik turizmi, ekoturizm, sport turizmi, gastronomik turizm	Muzeylar, Do'stlik kanali sohili, restoran va mehmonxonalar
Xo'jayli	Agroturizm, ziyorat va gastronomik turizm, etno va tarixiy turizm	Mizdakxan majmuasi, restoranlar, qishloqlar
Taxtako'pir	Agroturizm, sog'lomlashtirish turizmi, ekoturizm, ov turizmi	Qaratereng ko'li, Beltau (Borshitau), Aydosqal'a, Qizilqum, qishloqlar
Beruniy	Ziyorat turizmi, speleoturizm, tarixiy, agroturizm, tabiiy va ilmiy turizm, ornitologik turizm	Tarixiy qal'alar, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati , Sulton Uvays tog'i va majmuasi, Amudaryo sohillari, qishloqlar
Ellikqal'a	Agroturizm, ekoturizm, ov turizmi, tarixiy turizm, plyaj turizmi	Hududda joylashgan tarixiy qal'alar, Qizilqum, Aqchako'l, qishloqlar
To'rtko'l	Ov turizmi, ekoturizm, tarixiy turizm, agroturizm	Hududda joylashgan tarixiy qal'alar, Qizilqum, qishloqlar
Amudaryo	Agroturizm, ekoturizm, ov turizmi, tarixiy turizm, speleoturizm	Sulton Uvays tog'i, hududda joylashgan tarixiy qal'alar, Shilpiq qo'rg'oni, Shayx Jalil majmuasi, Amudaryo sohillari, qishloqlar
Chimboy	Agroturizm, ekoturizm, ov turizmi, madaniy turizm, sog'lomlashtirish turizmi	Qozoqdaryo to'qay va ovchilik xo'jaligi, Qusxanatau, issiq suvlar, qishloqlar
Kegayli	Agroturizm, ov, tarixiy-madaniy turizm, ot va tuyada turlar	Aqtuba ko'li, Ishanqal'a, qishloqlar
Bo'zatov	Agroturizm, ov, tarixiy-madaniy turizm, ot va tuyada turlar	Aqtuba ko'li, tuman hududidagi ko'llar, qishloqlar
Qorao'zak	Ziyorat turizm, speleoturizm, agroturizm, ilmiy turizm	Sulton Uvays tog'i, qishloqlar
Nukus t.	Agroturizm, ekoturizm, tarixiy-madaniy turizm, plyaj turizmi	Amudaryo sohillari, Dautko'l, Ko'ktau, Kerder arxeologik majmuasi, qishloqlar
Taxiatosh	Agroturizm, ornitologik turizm	Amudaryo sohillari, qishloqlar

Buning uchun esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi va Qishloq xo‘jaligi vazirligi turistik tashkilotlar bilan hamkorlikda yuqoridagi yo‘nalishlarni tashkil etishi zarur.

Qoraqalpogʻiston Respublikasida 2 kun davomida boʻlib oʻtgan “Orol va Moʻynoqning qayta tiklanishi” xalqaro ekofestivali, shoirlar Berdaq va Ajiniyoz xalqaro sheʼr va musiqa festivali, “Orol baliqlaridan 99 taom” gastronomik festivalida dunyoning 9 ta davlatidan (Qozogʻiston, Rossiya, Fransiya, Germaniya, Belgiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Amerika va Angliya) 30 dan ortiq sayyoh, mintaq va viloyatlardan 18 ta mehmonxona hamda 6 ta turistik korxona vakillari ishtirok etdi. Moʻynoq tumanidagi “Madeli” OFY hududidagi “Koʻk suv” koʻli boʻyida boʻlib oʻtgan “Orol baliqlaridan 99 taom” gastronomik festivalida mohir oshpazlar tomonidan tayyorlangan baliq taomlari, milliy hunarmandchilik va qoʻl mehnati namunalari koʻrgazmalari namoyish etildi. Sayyohlar koʻlda katerlarda sayohat qilib, sohil boʻyida sanʼat ustalarining konsert dasturini tomosha qilishdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-sonli² Farmonining qabul qilinishi bilan qator davlatlar fuqarolari uchun viza rejimining bekor qilinishi, hududdagi turistik firmalarga Orol dengiziga turistik marshrutlarni amalga oshirish uchun yo'tanlamas avtomobillarni olib kirishga qulay sharoitlar yaratilishi sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratib, chet ellik sayyohlar oqimining ortishiga xizmat qilmoqda. Demak, Qo'ng'iro't va Mo'ynoq tumanlari kabi boshqa hududlarda ham agroturizmni tashkil etish yondosh tarmoqlarning rivojlanishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, mahalliy aholi daromadlari va valyuta tushumining oshishiga, turfirmalar soni hamda mintaqaga turistlar oqimining yanada ko'payishiga olib keladi, deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qoraqalpog'iston Respublikasida agroturizm va unga turdosh turizm tarmoqlarini (ekoturizm, ziyorat va ov turizmi) rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

Tezkor o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda hududning turizm salohiyatini SWOT-tahlil qilish orqali sohaning kuchli tomonlari, rivojlantirilishi lozim bo'lgan jihatlari, mavjud imkoniyatlari hamda tashqi xavf-xatarlari aniqlandi. Orolbo'yi va Amudaryo ekotizimi sharoitida ekologik va geosiyosiy xavflarni samarali boshqarish, sohaga raqamli marketing va ommaviy axborot vositalari (OAV) imkoniyatlarini keng jalb etish orqali mintaqaning xalqaro turistik jozibadorligini oshirish zarurligi asoslab berildi.

A-380 xalqaro avtomobil yo'li bo'ylab yangi eko- va agroturistik marshrutlarni tashkil etish mintaqaning tranzit-logistika imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda yo'lbo'yi va turistik infratuzilmani (mehmonxonalar, kempinglar, agro-uylar) yanada rivojlantirish xizmatlari sohasi diversifikatsiyasiga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan strategik yo'nalishlarning amaliyotga tatbiq etilishi Qoraqalpog'istonning chekka va qishloq hududlarida yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va mintaqaviy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2018. – URL: www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 545-son "2022–2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining turistik salohiyatini jadal rivojlantirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2022. – URL: www.lex.uz.
3. Alimov A. Ecotourism Development in Karakalpakstan: Challenges, New Trends and Prospects. – Budapest: Szent István University, 2019.
4. Adilova Z., Kusekeev B. Prospects of Tourism Development in the Republic of Karakalpakstan // Journal of Regional and Eco-Tourism. – 2021. – Vol. 4, No. 12. – P. 45–53.
5. Ibragimova N. B., Khojanazarov N. R. Cultural and Social Aspects of Tourism Potential in the Aral Sea Region // Bulletin of Science and Practice. – 2022. – Vol. 8, No. 5. – P. 512–519.
6. Matzhanov A. Zh. Transport Problems and Infrastructure Development of Karakalpakstan in Relation to Transit Corridors // International Journal of Logistics and Transport. – 2021. – Vol. 14, No. 2. – P. 109–117.
7. Mahmudova M., Mamadiyarov Z., Kurbonbekova M. Tourism Development in Karakalpakstan: Unveiling Potential and Addressing Challenges // International Conference on Language, Literature and Tourism. – 2024. – Vol. 3, No. 1. – P. 94–102.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Xizmatlar sohasi va turizm ko'rsatkichlari: 2017–2023-yillar ma'lumotlari. – Toshkent, 2023. – URL: www.stat.uz.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-sonli Farmoni: <https://www.lex.uz/docs/-3548467>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>